



## BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2023-yil yanvar - sentabr*






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vosi tasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichlari shular jumlasidandir.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **11 399,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 - yilning yanvar - sentabr oylariga nisbatan **104,7%** ga yetdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **884,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **126,6 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **10 515,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **103,2 %**), shu jumladan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 416,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **112,6 %**) tashkil etdi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI


**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste‘mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so‘m	2022- yil yanvar – sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so‘m	2022- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd.so‘m	2022- yil yanvar – sentabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>11 399,2</b>	<b>104,7</b>	<b>884,1</b>	<b>126,6</b>	<b>10 515,1</b>	<b>103,2</b>
Buxoro shahri	3 493,7	105,1	512,7	147,6	2 981,0	100,1
Kogon shahri	441,6	103,3	8,0	119,3	433,7	103,0
<i>tumanlar:</i>						
Olot	366,6	114,2	5,5	90,2	361,2	114,6
Buxoro	833,2	101,7	3,3	100,1	829,9	101,7
Vobkent	417,0	102,4	5,0	88,1	412,1	102,6
G‘ijduvon	1 936,4	104,4	63,5	146,2	1 872,9	103,3
Kogon	291,4	106,1	122,4	109,6	169,1	103,6
Qorako‘l	975,3	111,1	8,2	90,7	967,1	111,3
Qorovulbozor	195,3	102,9	1,2	97,2	194,2	103,0
Peshku	481,0	101,8	136,1	94,7	344,9	104,9
Romitan	703,6	103,1	5,1	90,7	698,5	103,2
Jondor	715,8	103,8	7,7	86,1	708,1	104,0
Shofirkon	548,2	101,5	5,7	94,9	542,6	101,5

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan viloyatning Olot tumanida (114,2 %), Qorako‘l tumanida (111,1 %) va Kogon (106,1 %) tumanida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘shish sur‘ati qayd etildi.


# YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar-sentabr, mlrd.so'm)



So'nggi **6 yillikda** chakana savdo Tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati 2022-yil yanvar-sentabr oyida kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan **111,8%** ni yoki **12 301,8** mlrd. so'mni tashkil qildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar –sentabr oylari)



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida o'sish sur'ati 104,7 % ni tashkil qildi.


**yanvar-sentabr**

**2023- yil**


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **10 515,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 - yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **3,2** % ga ko'paydi. . Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,2** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022 - yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **26,6** % ga o'sdi va **884,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,8** % ulushiga to'g'ri keldi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Buxoro (**99,6 %**), Qorovulbozor (**99,4 %**) va Qorako'l (**99,2 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **7,8 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Kogon (**42,0 %**), Peshku (**28,3 %**) tumanlari va Buxoro (**14,7 %**) shahrida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>5 636,7</b>	<b>103,0</b>
Buxoro shahri	12 005,7	103,1
Kogon shahri	6 889,8	101,3
<i>tumanlar:</i>		
Olot	3 545,8	112,5
Buxoro	4 731,2	100,0
Vobkent	2 839,0	100,7
G'ijduvon	6 066,5	102,6
Kogon	3 498,5	103,9
Qorako'l	5 720,1	109,6
Qorovulbozor	9 915,6	100,3
Peshku	3 708,3	100,1
Romitan	4 693,6	101,2
Jondor	3 902,9	102,0
Shofirkon	2 961,9	100,1


2023 - yilning yanvar-sentabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **5 636,7** ming. so'mni (2022 - yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **103,0%**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (**12 005,7** ming. so'm), Qorovulbozor tumani (**9 915,6** ming. so'm) va Kogon shahri (**6 889,8** ming. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Buxoro viloyati bo'yicha 2023 - yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 416,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **112,6 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12- bozor va 12- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **693,1** mlrd. so'mni (**127,9 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **722,9** mlrd. so'mni tashkil etdi (**101,0 %**).

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 416,0</b>	<b>112,6</b>	<b>693,1</b>	<b>127,9</b>	<b>722,9</b>	<b>101,0</b>
Buxoro shahri	174,3	91,7	153,1	96,1	21,2	68,9
Kogon shahri	32,3	96,3	7,3	34,7	25,0	199,3
<i>tumanlar</i>						
Olot	127,3	150,9	13,7	81,1	113,6	168,4
Buxoro	22,9	60,9	22,3	101,7	0,6	4,1
Vobkent	117,2	103,3	66,4	84,3	50,8	146,3
G'ijduvon	355,3	115,2	245,9	138,3	109,4	83,8
Kogon	3,1	3,8 m.	3,1	3,8 m.	-	-
Qorako'l	265,5	156,8	125,1	10,9 m.	140,4	88,9
Qorovulbozor	24,7	108,1	5,0	107,1	19,7	108,4
Peshku	77,0	103,1	16,0	113,1	61,0	100,8
Romitan	78,2	129,6	16,2	138,3	62,0	127,5
Jondor	81,0	133,0	7,7	190,3	73,3	128,9
Shofirkon	57,2	56,5	11,3	58,8	45,9	56,0

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **693,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**270,1** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>270,1</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>98,9</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>55,2</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>35,1</b>
	<b>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	<b>32,3</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	<b>16,3</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>17,9</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b>	<b>4,0</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>9,2</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>9,5</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>5,4</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>139,2</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023 - yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **722,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **635,5** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar **82,4** mlrd. so‘mni, otlar **3,0** mlrd. so‘mni, parrandalar **2,0** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrd. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	366,8
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	129,2
	1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	139,5
	Qo‘ylar	56,2
	Otlar	3,0
	Echkilar	26,2
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	1,2
	Tovuqlar	0,6
	Quyionlar	0
	Qushlar	0,2

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023 - yil 1 - oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **2 094** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – oktabr holatiga nisbatan **335** taga oshgan va o'sish sur'ati **119,0 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **5** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 089** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **4,0 %** ni tashkil etib, **452,5** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **4,0 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **89,1 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>452,5</b>	<b>104,0</b>	<b>49,3</b>	<b>100,6</b>	<b>403,2</b>	<b>104,4</b>
Buxoro shahri	257,6	114,6	36,2	102,7	221,4	116,8
Kogon shahri	11,0	109,7	-	-	11,0	109,7
<i>tumanlar:</i>						
Olot	7,8	118,2	-	-	7,8	118,2
Buxoro	26,6	139,4	-	-	26,6	139,4
Vobkent	17,8	67,0	-	-	17,8	67,0
G'ijduvon	38,3	120,8	-	-	38,3	120,8
Kogon	9,0	88,5	-	-	9,0	88,5
Qorako'l	15,3	87,8	-	-	15,3	87,8
Qorovulbozor	5,1	63,6	-	-	5,1	84,0
Peshku	7,2	64,8	-	-	7,2	64,8
Romitan	41,9	83,7	13,1	110,9	28,8	75,3
Jondor	7,8	62,9	-	-	7,8	62,9
Shofirkon	7,1	100,9	-	-	7,1	100,9

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- oktabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) hajmi **2 753,2** mlrd. so'm bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan **152,0** % ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **2 150,6** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **165,2** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **602,6** mlrd. so'mni tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2 753,2</b>	<b>152,0</b>
Buxoro shahri	1 758,3	158,5
Kogon shahri	7,6	109,0
<i>tumanlar:</i>		
Olot	6,4	79,1
Buxoro	13,7	109,0
Vobkent	419,6	145,4
G'ijduvon	467,2	150,3
Kogon	7,0	109,0
Qorako'l	12,5	106,8
Qorovulbozor	4,6	111,3
Peshku	11,4	111,0
Romitan	12,0	107,7
Jondor	9,5	115,6
Shofirkon	23,4	100,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (**1 758,3** mlrd. so'm), G'ijduvon (**467,2** mlrd. so'm) va Vobkent (**419,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar – sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **9 980,1** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **6,4** % ga ko‘paydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi hajmi statistik hisoblarga qaraganda **7 032,8** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **114,8** %ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **70,5** % ni tashkil qildi.


# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Olot (**65,3 m.**), Qorovulbozor (**3,2 m.**), Qorako'l (**2,5 m.**) tumanlarida va Buxoro shahrida (**2,3 m.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 494** tani tashkil etib, 2022- yil 1- oktabr holatiga nisbatan **739** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **142,1 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **30** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 464** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>9 980,1</b>	<b>106,4</b>	<b>2 947,3</b>	<b>90,6</b>	<b>7 032,8</b>	<b>114,8</b>
Buxoro shahri	4 392,9	149,6	364,4	2,3 m.	4 028,5	144,8
Kogon shahri	264,6	99,7	150,6	95,1	114,0	106,4
<i>tumanlar:</i>						
Olot	212,7	9,2 m.	0,5	65,3 m.	212,2	9,2 m.
Buxoro	246,1	85,2	-	-	246,1	85,2
Vobkent	955,4	67,8	940,2	68,4	15,2	43,0
G'ijduvon	751,0	65,2	291,2	73,3	459,8	60,9
Kogon	405,1	64,3	252,8	83,8	152,3	46,4
Qorako'l	196,2	166,5	110,8	2,5 m.	85,4	116,8
Qorovulbozor	59,6	101,1	0,4	3,2 m.	59,2	100,7
Peshku	1 115,8	150,2	474,7	99,9	641,1	2,4 m.
Romitan	555,2	98,8	305,9	117,0	249,3	83,0
Jondor	693,0	92,1	-	-	693,0	92,1
Shofirkon	132,5	30,0	55,8	65,5	76,7	21,5



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Тел. 65-223-75-63**